



Qahramon ESHBOYEV,
Renessans ta'lim universiteti dotsenti, PhD
E-mail: eshboyev202020@gmail.com

Renessans ta'lim universiteti professori v.b., DSc I.Islomov taqrizi ostida

ON THE APPLICATION OF GRADING METHODOLOGY IN LINGUISTICS

Annotation

The article presents the theoretical foundations, scope, and practical significance of the grading methodology, and analyzes its potential as a tool for scientific analysis in linguistics.

Key words: Ranking methodology, linguistics, lexicology, semasiology, synonymy, intensity, lexicography.

О ПРИМЕНЕНИИ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В статье излагаются теоретические основы, область применения и практическое значение методики градуировки, анализируется ее потенциал как инструмента научного анализа в лингвистике.

Ключевые слова: Методология ранжирования, лингвистика, лексикология, семасиология, синонимия, интенсивность, лексикография.

TILSHUNOSLIKDA DARAJALANISH METODOLOGIYASINING TATBIQ ETILISHI XUSUSIDA

Annotatsiya

Maqolada darajalanish metodologiyasining nazariy asoslari, qo'llanish doiralari va amaliy ahamiyati ko'rsatilib, tilshunoslikda ilmiy tahlil vositasi sifatida uning imkoniyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Darajalanish metodologiyasi, tilshunoslik, leksikologiya, semasiologiya, sinonimik qator, intensivlik, lug'atchilik.

Kirish. Har bir tilning leksik boyligi uning o'ziga xos ma'no qatlamlari va uslubiy o'ziga xosliklari bilan ajralib turadi. So'zlar o'rtasidagi ma'no aloqalari, funksional imkoniyatlari va uslubiy xususiyatlarini chuqur anglash tilning to'g'ri, aniq va samarali qo'llanilishi uchun muhim zamin yaratadi. Ana shu jarayonda so'zlararo darajalanish tamoyili muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, lug'atlar tuzishda, o'quv materiallari tayyorlashda, tilni targ'ib qilish va o'rgatish jarayonlarida muhim o'rin tutadi.

So'zlararo darajalanish bu so'zlarning ma'no, uslub, ishlatilish doirasi va kommunikativ maqsadlariga ko'ra tizimli ravishda tartiblanishini anglatadigan metodologik yondashuvdir. Bunday tartiblash, avvalo, foydalanuvchining yoshi, bilimi va til kompetensiyasi darajasiga mos ma'lumot taqdim etish imkonini beradi. Binobarin, so'zlarning bir-biriga nisbatan qanday ma'no, uslub va foydalanish darajasiga ega ekanligini aniq ko'rsatish, lug'atlar hamda til o'qitish materiallarining samaradorligini oshiradi.

Hozirgi kunda global axborot maydonida turli yosh va bilim darajasiga ega bo'lgan millionlab foydalanuvchilar til resurslaridan foydalanmoqdalar. Bunday sharoitda so'zlararo darajalanish asosida shakllangan lug'atlar va o'quv qo'llanmalar turli yosh guruhlarga tilni o'rgatishda va undan samarali foydalanishni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bu jarayon, ayniqsa, izohli lug'atlarda so'zlarning ma'no darajalarini to'g'ri va tizimli taqdim etish orqali amalga oshadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Darajalanish muammosiga doir ilk nazariy qarashlar rus tilshunosi A.A.Reformatskiy asarlarida aks etgan. Olim 1967-yilda nashr etilgan "Vvedeniye v yazikoznaniye"[1] ("Tilshunoslikka kirish") asarida leksik birliklarning semantik jihatdan kuchayish va zaiflashish xususiyatlarini ko'rsatib o'tgan. Keyinchalik bu g'oya E.M.Galkina-Fedoruk tomonidan

rivojlantirildi[2]. Uning "Sovremenniy russkiy yazik" ("Zamonaviy rus tili") asarida sinonimik qatorlardagi so'zlarning intensivlik darajasi bo'yicha farqlanishi masalasi ko'tarilgan.

Metodologik jihatdan lingvistik darajalanish tadqiqida struktural-semantik tahlil usuli muhim o'rin tutadi. Bu usul V.V.Vinogradov maktabida rivojlantirilgan[3] va keyinchalik Y.D.Apresyan tomonidan mukammallashtirilib, komponentli tahlil metodikasi bilan boyitilgan[4]. Komponentli tahlil orqali so'zning sema tarkibidagi intensivlik komponentlarini aniqlash va ularning darajalanish jarayonidagi o'zgarishlarini kuzatish mumkin.

Psixolingvistik yondashuvlar ham graduonimiya tadqiqida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. A.A.Leontev va A.R.Luriya tadqiqotlari[5] so'zning ma'no strukturasining ong faoliyatidagi aksini ko'rsatdi. Bu esa darajalanish hodisasining kognitiv tabiatini tushunish uchun zarur nazariy asos yaratdi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan darajalanish muammosi G.Lakoff va M.Johnson konseptual metafora nazariyasi[6] doirasida yangi talqin oldi. Ularning fikricha, intensivlik va darajalanish insonning dunyoni idrok etish usuli bilan bevosita bog'liq. Bu yondashuv graduonimiya hodisasini antroposentrik nuqtayi nazardan tahlil qilish imkonini beradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda korpus lingvistikasi metodlari ham keng qo'llanilmoqda. J.Sinclair va uning hamkorlari[7] tomonidan ishlab chiqilgan kollokatsiya tahlili usullari graduonimlarning matnda ishlatilish chastotasi va kontekstual xususiyatlarini aniqlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Umuman olganda, lingvistik darajalanishning metodologik asoslari struktural, semantik, psixolingvistik, kognitiv va statistik yondashuvlarning sintezini talab qiladi. Bu ko'p qirrali

metodologiya graduonimiya hodisasining to'liq va chuqur tahlilini amalga oshirish imkonini beradi.

Darajaviy tahlil metodikasi sifatlar bilan cheklanmay, balki fe'l, ot, ravish kabi boshqa so'z turkumlaridagi darajaviylikni ham qamrab oladi. Masalan, yugurdi – chopdi – ilgariladi kabi harakat intensivligidagi farqlar fe'llar orqali ifodalanadi. Bu holatlarni o'rganish orqali o'zbek tilidagi gradatsion tizimning boyligi va o'ziga xosligi aniqlanadi. Bugungi kunda "graduonimiya" atamasi kengayib, tilshunoslikning faqat nazariy emas, balki amaliy sohalarida ham qo'llanmoqda. Jumladan, avtomatik tarjima, semantik tahlil, tilni sun'iy intellektga o'rgatish, lingvometrik tadqiqotlar kabi yo'nalishlarda darajaviy birliklar alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, uslubiy vosita sifatida darajalangan birliklardan adabiy matnlar tahlilida, poetik tafsirlarda, til madaniyati darslarida ham foydalanish mumkin. Graduonimiyaga oid tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, har qanday tabiiy tilda daraja ifodalovchi birliklar mavjud bo'lib, ularning tizimlashtirilgan holda tahlil qilinishi tilning ichki mexanizmlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, lingvistik nazariya bilan til amaliyoti o'rtasidagi bo'shliqni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Tilshunoslikda darajalanish metodologiyasi tilshunoslikning o'ziga xos tadqiqot uslublari, metodlari va yondashuvlarini o'rganadigan fan sohasidir. Tilshunoslikda daraja tushunchasi tilning turli tizimlarini, qatlamlarini, ya'ni fonologik, morfologik, sintaktik, semantik, va pragmatik darajalarini o'z ichiga oladi.

Tilshunoslikda darajalanish metodologiyasini aniqroq yoritish uchun dastlavval tilshunoslikdagi asosiy ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish maqsadga muvofiq. Strukturalizm lingvistikaning asosiy metodologik maktablaridan biri bo'lib, u tilning tizim sifatida ko'rinishini ifodalaydi. Strukturalistlar tilni bir-biriga bog'liq bo'lgan elementlar tizimi sifatida o'rganadilar. Ular til darajalarini (fonologiya, morfologiya, sintaksis va h.k.) alohida tadqiq qilib, har bir darajani o'zaro munosabatlar va tuzilmalari nuqtayi nazaridan tahlil qiladilar.

Strukturalizm – struktural lingvistika XX asrning 20-yillarida yuzaga kelib, hozirgi zamon tilshunosligining o'ziga xos yetakchi oqimlaridan, yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi. Ushbu tilshunoslik til strukturasini (qurilishini) til nazariyasining asosi deb bildi. Struktural lingvistika tilni ishoralar (belgilar) sistemasi sifatida o'rganadi va uning shartli belgilik xususiyati bilangina qiziqadi. U tildagi belgilarning munosabatlari, oppozitsiyalari yoki funksiyalariga alohida e'tibor berganidan til birliklaridan biri mavjud bo'lgani uchungina boshqasi mavjuddir, deb hisoblaydi. Struktural tilshunoslik o'zaro munosabatlardan mustaqil ravishdagi materiyaning yoki reallikning bo'lishini inkor qiladi. Shunga ko'ra, lingvistik birliklar munosabatlar orqali belgilanishi lozimligini qayd etadi. Vaholanki, lingvistik birliklar birlamchi bo'lib, ular orasidagi munosabat shu birliklar mavjud bo'lgani uchungina mavjuddir.

Hozirgi davrda strukturalizmning asosiy maktablari uchta bo'lib, ular Praga strukturalizmi, Amerika strukturalizmi va Kopengagen strukturalizmi nomi bilan ataladi. Ishimizning hajmini inobatga olgan holda har bir maktabga alohida to'xtalib o'tishni joiz deb bilmadik.

Funksionalizm tilni faqat tuzilmaviy jihatdan emas, balki ishlatish maqsadi, vazifasi va funksiyalari nuqtayi nazaridan o'rganuvchi tilshunoslik yo'nalishidir. U tilni jamiyatdagi kommunikativ vosita deb hisoblaydi va har bir til birligini uning vazifasi orqali baholaydi. YA'ni til birliklari nega bunday shaklda degan savolga emas, u qaysi vazifani bajarmoqda degan savolga javob berishga qaratilgan.

Funksionalizm tilshunoslik, sotsiologiya, psixologiya va boshqa ijtimoiy fanlarda qo'llaniladigan nazariya bo'lib,

tizim yoki hodisalarni ularning vazifalari asosida tushuntirishga qaratilgan yondashuvdir. Funksionalizm har bir element yoki jihat tizimning o'ziga xos maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu nazariya tizimning barcha qismlari bir-biriga bog'lanib, umumiy tizimning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Generativ grammatika, Noam Chomskyning ishlariga asoslanib, tilni insonning aqliy qurilmasi sifatida ko'rib chiqadi. Bu metodologiya tilning mukammal va tabiiy sistemalarini yaratish jarayonlarini tahlil qiladi. Generativ grammatikaning metodologik asoslarida tilning yuqori darajalarini (sintaktik tuzilmalar) va ularning ichki mexanizmlarini o'rganish hamda universal grammatikalarning mavjudligini isbotlashga qaratilgan metodlar mavjud.

Ma'lumki, dunyoni, voqelikni bilish, uni idrok etish oddiy hodisa emas. Ayrim hollarda bilishni to'g'ridan to'g'ri fahmlash, tushunish harakatlari bilan bog'lab qo'yishadi. Ammo hayvonlarga ham qisman (oddiy shaklda bo'lsa ham) fahmlash, tahlil qilish va umimlashtirish qobiliyati xos ekanligi ma'lum. Shu sababli bilish faoliyati haqida gap ketganda, faqatgina cogitation (lotincha), ya'ni aql, tafakkur hodisasini tasavvur qilish bilan cheklanmasdan, balki cogitatorium – tafakkur faoliyati shaxsini hamda bu faoliyat bilan bog'liq bo'lgan barcha turdagi nomenal (ijtimoiy, madaniy, lisoniy) hodisalarni ham inobatga olish kerak bo'ladi. Shuni unutmaslik lozimki, tafakkurning o'zi insonning maqsadli faoliyati natijasida hosil bo'lib, u insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonida voqelikka nisbatan bildirilayotgan faol munosabatning ifoda topishidir[8].

Diskurs tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan biri bo'lib, diskurs-tahlil tushunchasi ma'lum madaniy-tarixiy sharoitlarda va ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda amalga oshirilgan shaxslarning nutq faoliyatining mahsuli bo'lgan har xil turdagi bayonotlar yoki matnlarni sharhlashning analitik usullari to'plamini o'z ichiga oladi. Diskurs tahlili, tilning ma'nosini va uning ijtimoiy kontekstini o'rganishga qaratilgan metodologik yondashuvdir. Bu usulda tilning biror joriy yoki tarixiy kontekstda qanday ishlashini, qanday ma'nolar va ijtimoiy munosabatlarni anglatishini o'rganish maqsad qilinadi. Diskurs tahlilida lingvistik darajalar orasidagi bog'lanishlar ham ko'rib chiqiladi.

Pragmatika – bu tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, til birliklarining ishlatilish sharoitidagi ma'nosi, gapirish maqsadi va hamsuhbatlar o'rtasidagi munosabatni o'rganadi. Pragmatika – so'zlar qanday sharoitda va qanday maqsadda ishlatiladi, degan savolga javob beradi. Pragmatika metodologiyasi tilni faqat struktural jihatdan emas, balki uning foydalanuvchisi, ularning maqsadlari va kommunikativ vaziyatlari nuqtayi nazaridan o'rganadi. Pragmatik tadqiqotlarda tilning har bir darajasini kontekstga mos ravishda tahlil qilishga ahamiyat beriladi.

Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy vazifalarini o'rganadi. Bu metodologiya lingvistik darajalarni ijtimoiy faktorlar, etnik guruhlar, sinf va boshqa ijtimoiy omillar bilan bog'lab tahlil qiladi. Sotsiolingvistika orqali tilning o'zgarishini, dialektlarni va lingvistik jihatlarni aniqlash mumkin.

Tilshunoslikda darajalanish tushunchasi bu tilning ichki tuzilishida mavjud bo'lgan birliklarning muayyan darajalarga (qatlamlarga) ajratilishi va ular orasidagi tuzilmaviy munosabatlarni ifoda etadi.

Tilga iyerarxik tizim sifatida qaraladi. Har bir til birligi yuqori yoki pastki darajadagi birliklar bilan bog'lanadi. Masalan: fonema → morfema → so'z → so'z birligini → gap → matn kabi.

Tilshunoslikda graduonimiyaning uslubiy tamoyillari o'zaro ta'siri va muhiti orqali tilni o'zlashtirishga ko'plab yondashuvlarni taklif etadi. Har bir metodologiya turli xil usullardan foydalangan holda alohida lingvistik daraja

(fonologiya, morfologiya, sintaksis, semantika va pragmatika) larni ko'rib chiqadi va tilni turli nuqtayi nazardan tahlil qiladi. Ushbu strategiyalar tilning evolyutsiyasi, o'zgarishi va ijtimoiy funksiyasini tushinishda qo'l keladi.

Darajalanish metodologiyasining asosiy maqsadi – har bir darajani alohida o'rganish va ularning o'zaro aloqalarini ko'rsatishdan iborat. Bu tilni yaxshiroq tushunish va aniqroq tahlil qilishda ahamiyatlidir.

Tilshunoslikda darajalanish qonuniyati tilning strukturasi tuzishda va uning funksiyalarini ajratishda qo'llanadigan asosiy konsepsiya va atamalarni o'z ichiga oladi. Bu darajalanish tildagi turli elementlarning aniq darajalarga bo'linishiga, ya'ni tilning kichik elementlaridan katta strukturalarga qarab ajratilishiga asoslanadi. Lingvistik darajalanishga quyidagi asosiy termin va ularning izohlari kiradi:

Terminlar	Izoh
Fonema	Tildagi eng kichik fonetik birlik bo'lib, so'z ma'nosini farqlashda ishtirok etadi.
Leksema	So'zning lug'atdagi asosiy shakli. Barcha grammatik shakllar aynan shu leksema asosida yuzaga keladi.
Morfema	Tilning boshqa ma'noli qismlarga bo'linmaydigan eng kichik birligi.
So'z	Tildagi ma'no va grammatik funksiyaga ega bo'lgan mustaqil birlik.
So'z birikmasi	Ikki yoki undan ortiq so'zning grammatik bog'liqligida hosil bo'lgan tuzilma.
Gap	Tugal fikrni ifoda etuvchi til birligi.
Matn	Bir-biriga ma'no va mazmun jihatidan bog'liq gaplar majmuasi.
Fonetik daraja	Tovush va ularning artikulyatsiyasini o'rganadigan til darajasi.
Leksik daraja	So'z, ularning ma'nolari, lug'at tarkibi va munosabatlarini o'rganuvchi daraja.
Morfologik daraja	Morfema va so'zning ichki tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan daraja.
Sintaktik daraja	So'z birikmalari va gaplar tuzilishini o'rganadigan daraja.
Semantik daraja	Til birliklarining ma'nolari va ma'nolar tizimini o'rganadigan daraja.
Pragmatik daraja	Tilning ishlatilish sharoitidagi ma'nolarini va maqsadini o'rganuvchi daraja.

Xulosa va takliflar. Darajalanish metodologiyasi va leksikografiya o'rtasidagi o'zaro aloqalar tilshunoslikdagi keng ko'lamli tadqiqotlar uchun muhimdir. Har bir til darajasi (fonologiya, morfologiya, sintaksis, semantika, pragmatika) leksikografik yondashuvda alohida ahamiyatga ega bo'lib,

tilning to'liq va mukammal tasvirini yaratishda muhim sanaladi. Darajalanish metodologiyasi tilni tahlil qilishda chuqur, tizimli va kompleks yondashuvlarni taklif qiladi, leksikografiya esa bu bilimlarni amaliy tarzda, ya'ni lug'at shaklida tasvirlashga sharoit yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М.: Просвещение, 1967. – 542 с.
2. Галкина-Федорук Е.М. Современный русский язык. – М.: Изд-во МГУ, 1958. – 408 с.
3. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. – М.: Высшая школа, 1972. – 614 с.
4. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. – М.: Наука, 1974. – 367 с.
5. Леонтьев А.А. Психолингвистические единицы и порождение речевого высказывания. – М.: Наука, 1969. – 307 с.
6. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
7. Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. – Oxford: Oxford University Press, 1991. – 179 p.
8. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах, 2006. – 92 б.